

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi ishonch telefoniga 5-9 iyun

kunlari 209 nafar fuqarodan murojaatlar kelib tushdi

Murojaatlar bo'limi xodimlari 5-9 iyun kunlari ***Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya, ko'z mikroxirurgiyasi, ftiziatriya va pulmonologiya, onkologiya va tibbiy radiologiya, dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari hamda Bolalar milliy tibbiyot markazida*** imtiyozli yo'llanma bilan davolanib chiqqan **209 nafar** bemorlar bilan tibbiy yordamni baholash hamda tibbiy yordam sifati yuzasidan telemuloqotlar o'tkazdilar.

O'tkazilgan telemuloqotlar natijasida **14(6,7%) nafar** bemorlar shifokorlarning bemorlarga muomalasidan, o'z hisobidan dori-darmon va tekshiruvlar uchun ortiqcha sarf-harajat qilganligi, shifoxona sharoitidan qoniqmaganligi, oziq-ovqatlari yuzasidan ***o'z e'tirozlarini bildirgan.***

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi ishonch telefon(**99 353 93 54, 94 353 93 54**)lariga **180 ta** fuqarolardan murojaatlar kelib tushdi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo'lgan fuqarolarga Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan yuborilgan "**sms**" xabarnoma yuzasidan hamda fuqarolarning ***og'zaki murojaatlari*** bo'ldi.

Murojaatlar bilan ishlash bo'limi xodimlari hafta davomida **389 nafar** fuqarolar bilan telemuloqotlar o'tkazdilar.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasiga hafta mobaynida imtiyozga ega fuqarolardan ishonch telefonlariga hamda tashkilot manziliga **9(5%) ta og'zaki e'tirozli murojaatlar** bo'ldi.

Shulardan:

Bolalar milliy tibbiyot markazida, Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasida ikki nafar imtiyozli yo'llanma bilan davolanayotgan bemorlar ***shifokorlar qarovidan, davolanish sifatidan, o'z hisobidan tibbiy jixozlar sotib olayotganligini bildirib*** Jamg'armaning ishonch telefoniga ***e'tirozli og'zaki murojaatlar*** qildilar.

Ushbu murojaatlar yuzasidan shifoxona mas'ullariga telefon orqali murojaatchilarning ma'lumotlari berildi, bemorlar e'tirozlari o'rinliligi yuzasidan tushuntirildi, ***og'zaki murojaatlar o'z vaqtida bartaraf qilindi.***

Navoiy, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida yashovchi ***imtiyozga ega fuqarolardan*** Jamg'arma ishonch telefonlariga kelib tushgan og'zaki murojaatlar xududiy bosh mutaxassislariga ma'lumotlari berildi, ***og'zaki murojaatlar ijobiy hal qilindi.***

Jamg'arma manziliga ***Toshkent shahar Shayxontoxur tumanida*** yashovchi imtiyozga ega fuqaro ***imtiyozli yo'llanma olish tartibi yuzasidan, Toshkent shahar Olmazor tumanida*** yashovchi imtiyozga ega fuqaro nabirasini chel elda jarrohlik amaliyoti o'tkazish uchun ***moddiy yordam so'rab*** og'zaki murojaatlar qilib keldilar. Fuqarolar murojaatlari tegishligi yuzasidan qaysi manzilga murojaat qilishligi tushuntirildi.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi Matbuot xizmati